

**KO'CHMAS MULK VA TRANSPORT VOSITALARINING OLDI-SOTDI
SHARTNOMALARI BO'YICHA
ESKROU HISOBVARAG'I OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI**

Ushbu transport vositalarining oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha eskrou hisobvarag'i ommaviy oferta shartnomasi (keyingi o'rinlarda "Oferta") O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq, eskrou hisobvarag'ini ochish va unga xizmat ko'rsatish yuzasidan Oferta tuzish bo'yicha yuborilgan rasmiy ommaviy taklif bo'lib hisoblanadi.

Xaridor tomonidan mazkur Ofertada aks ettirilgan shartlarlar bilan to'liq o'rganib chiqishi shart. Oferta Xaridor tomonidan belgilangan tartibda ariza taqdim qilingandan va _____ vaqtdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq akseptlangan deb hisoblanadi hamda Xaridor mazkur Ofertaning barcha shartlarini va Bank Tariflariga asosan to'lovlarni to'lashni istisno qilmasdan so'zsiz qabul qilganligini anglatadi.

1. OFERTA PREDMETI

1.1. Mazkur Ofertaga asosan Bank Xaridor nomiga eskrou hisobvaraqq ochadi, ushbu hisobvaraqqga tushgan pul mablag'larini qabul qiladi, saqlaydi va mazkur Ofertada belgilangan shartlar yuzaga kelganda ularni sotuvchiga o'tkazadi yoki Xaridorga qaytaradi.

1.2. Mazkur Oferta bo'yicha ochailgan eskrou hisobvarag'i Xaridorning arizasida belgilangan Transport vositasi oldi-sotdi shartnomasi doirasidagi hisob-kitoblarni ta'minlash uchun mo'ljallangan.

2. ESKROU HISOBVARAG'INI OCHISH VA YURITISH

2.1. Eskrou hisobvarag'i Xaridorning yozma topshirig'iga asosan ochiladi.

2.2. Bir oldi-sotdi shartnomasi uchun faqat bitta eskrou hisobvarag'i ochiladi.

2.3. Bank hisobvaraqqni ochgan kundan boshlab uning yuritilishi uchun javobgar hisoblanadi.

2.4. Xaridor yoki uning vakili bir nechta bo'lishidan qat'iy nazar bitta Oferta uchun bitta eskrou hisobvarag'i ochiladi.

2.5. Eskrou hisobvarag'ida joylashtirilgan mablag'larga foizlar hisoblanmaydi va to'lanmaydi.

3. PUL MABLAG'LARINI KIRITISH TARTIBI

3.1. Xaridor Oferta bo'yicha kelishilgan mablag'larni naqd yoki naqdsiz shaklda, Bank ichidagi hisobvaraqqdan o'tkazma yoki kredit mablag'lari hisobidan 3 (uch) bank kuni ichida eskrou hisobvarag'iga kiritilishi mumkin.

3.2. To'lov majburiyatlarini kechiktirish sharti bilan amalga oshirilsa, Xaridor эскрой hisobvarag'iga taraflar o'rtasida kelishilgan (boshlang'ich agar mavjud bo'lsa) pul mablag'lari kirim qilinishi mumkin.

3.3. Boshlang'ich badal (agar mavjud bo'lsa) Oferta bo'yicha muhim shart hisoblanadi. Boshlang'ich badal belgilangan muddatda kiritilmasa, Bank Ofertani bekor qilish va hisobvaraqqni yopish huquqiga ega.

3.4. Bank mablag' tushganligi haqida elektron axborot tizimida ma'lumot shakllantiradi.

3.5. Eskrou hisobvariga mablag' to'liq kiritilmaguncha Oferta ijrosi boshlanmagan deb hisoblanadi (*Ofertaning 4.2-bandini bundan mustasno*).

3.6. Eskrou hisobdagi mablag'lar bloklanadi va ulardan foydalanish taqiqlanadi.

3.7. Qonunchilikka muvofiq, hisobdagi mablag'lar vakolatli organning tegishli hujjati asosida musodara qilinishi yoki xatlanishi mumkin. Shu bilan birga, Xaridor mablag'lar xatlangan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida 2.1-bandda kelishilgan summani hisobga qayta kiritishi shart.

Bunday hollarda Bank talablar asosida amalga oshirilgan harakatlar uchun javobgar hisoblanmaydi.

3.8. Har bir operatsiyasida Ofertada belgilangan umumiy summaga muvofiqligi va oldi-sotdi shartnomasiga tegishlilikini tekshiradi.

4. MABLAG‘LARNI O‘TKAZISH VA QAYTARISH TARTIBI

4.1. Bank mablag‘larni sotuvchiga faqat notarius tomonidan oldi-sotdi shartnomasi tasdiqlanganligi haqidagi elektron ma‘lumot olingan, ushbu ma‘lumot mazkur Ofertaning oldi-sotdi shartnomasiga mos kelgan, hisobvaraqa yetarli mablag‘ mavjud va sotuvchining rekvizitlarida tafovut bo‘lmagan taqdirda o‘tkazadi.

Agar, sotuvchi bir nechta bo‘lsa mablag‘lar belgilangan ulush va summalarga muvofiq taqsimlanadi.

4.2. Bank “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan oldi-sotdi shartnomasi tasdiqlanganligi bo‘yicha ma‘lumotni olgandan so‘ng, dasturiy ravishda memorial order bilan xaridorning yoki uning vakilining eskrou hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini shu bank ish kunida (agar ma‘lumot ish kuni tugagandan keyin kelib tushsa, keyingi ish kunida) sotuvchining yoki uning vakilining hisobvarag‘iga (hisobvaraqlariga) o‘tkazadi.

4.3. Sotuvchining so‘roviga ko‘ra, uning hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘lar Bank tomonidan naqd shaklda taqdim etilishi mumkin.

4.4. Agar oldi-sotdi shartnoma tasdiqlanmagan hamda bankka “Ko‘chmas mulk va transport vositalarining oldi-sotdi shartnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun notariuslar va banklar o‘rtasida elektron ma‘lumotlar almashish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 3-ilovasida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar yuborilmagan bo‘lsa, xaridor yoki uning vakilining so‘roviga asosan tegishli eskrou hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qaytarib beriladi.

4.5. Mablag‘larni qaytarish Xaridorning arizasiga asosan, qaytarish uchun asoslar mavjud bo‘lganda 3 ish kuni ichida amalga oshiriladi

5. BANK XIZMAT HAQI (KOMISSIYA)

5.1. Eskrou hisobvarag‘ini ochish va yuritish uchun Xaridor Bankka bank tariflariga muvofiq vositachilik haqi to‘laydi.

5.2. Bank xizmat haqi Eskrou hisobvarag‘idagi asosiy summadan alohida, uni ochish vaqtida to‘lanadi.

5.3. Naqd pulsiz shaklda kirim qilingan mablag‘lar naqd pulda berilishida hamda hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘larini boshqa banklarga o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan bank operatsiyalari uchun Bank tariflarida belgilangan miqdorda komissiya olinadi.

5.4. Eskrou amaliyoti bo‘yicha bank xizmati uchun undirilgan komission daromad qaytarilmaydi. Bunda mijozning bitimdan voz kechishi yoki boshqa sabablarga ko‘ra notarial harakat amalga oshmasligi komissiyani avtomatik ravishda qaytarish uchun asos hisoblanmaydi.

6. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

6.1. Bank huquqlari:

6.1.1. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, bankning ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda Xaridorga eskrou hisobvarag‘ini ochishni rad etish.

6.1.2. O‘zbekistonning jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvishtirish), terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligiga muvofiq hollarda, eskrou hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni (hisobvarag‘ga tushgan mablag‘larni kirim qilish operatsiyalaridan tashqari) vaqtincha to‘xtatib turish.

Bank mazkur choralar qo‘llanilganligi to‘g‘risida Xaridor va sotuvchini ularga xabar etib borishini va uning Bankdan kelganligini aniqlash imkonini beradigan har qanday usulda, jumladan masofaviy bank xizmatlari tizimi orqali xabardor qiladi.

6.1.3. O‘zbekiston qonunchiligi talablariga muvofiq, shu jumladan valyuta tartibga solish va nazorat, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, terrorizmni moliyalashtirish, xorijiy fuqarolar bilan moliyaviy operatsiyalar amalga oshirish sohalarida, shuningdek Bank zarur bo‘lgan hujjatlar va ma‘lumotlarni Xaridordan talab qilish.

6.1.4. Xaridor va sotuvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning nusxalarini saqlash.

6.1.5. Bank tomonidan xato tarzda kirim qilingan pul mablag‘larini eskrou hisobvarag‘idan yechib olish uchun talab qo‘yish.

6.1.6. Hujjatlar to'plami to'liq bo'lmagan yoki shakli talablariga mos kelmagan taqdirda mablag'ni o'tkazish / qaytarishni rad etish

6.2. Bank majburiyatlari:

6.2.1. Xaridor tomonidan ariza taqdim etilgandan keyin eskrou hisobvarag'ini ochish.

6.2.2. Xaridordan tushgan pul mablag'larini belgilangan summa doirasida eskrou hisobvarag'iga kirim qilish.

6.2.3. Eskrou hisobvarag'iga kirim qilingan pul mablag'larini ular hisobga o'tkazilgan paytdan boshlab sotuvchiga o'tkazilguniga qadar yoki ushbu Ofertaning 5.3.-bandiga muvofiq Xaridorga qaytarilguniga qadar blokirovka qilish va saqlanishini ta'minlash. Bundan, Ofertaning 4.7-bandida ko'rsatilgan holatlar mustasno.

6.2.4. Xaridorning talabiga ko'ra, eskrou hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar va qoldiq mablag'lar haqida, jumladan deponintlanadigan summa miqdori va uning hisobvarag'ga tushgan aniq sanasi haqida ma'lumotlarni komissiya haqi undirmasdan taqdim etish.

6.2.5. Taqdim etilgan hujjatlarni formal belgilari bo'yicha tekshirishni amalga oshirish.

6.2.6. Hujjatlar belgilangan talablarga mos kelgan va ushbu Ofertaning 5-bo'limida nazarda tutilgan shartlar va asoslar yuzaga kelgan taqdirda Xaridorning qo'shimcha topshirig'i va roziligsiz deponirlanadigan summani sotuvchiga o'tkazish.

6.2.7. Eskrou hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar sir saqlanishini va Xaridor haqidagi ma'lumotlarning maxfiyligini kafolatlash. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar Xaridorga va sotuvchiga taqdim etilishi mumkin.

6.3. Xaridor huquqlari:

6.3.1. Deponirlanadigan summani shakllantirish maqsadida eskrou hisobvarag'iga pul mablag'larini Ofertada belgilangan muddat doirasida bir martalik to'lov orqali kiritish.

6.3.2. Ushbu Ofertaning 5.3-bandiga muvofiq Xaridorlanadigan mablag'ni qaytarishni bankdan talab qilish.

6.3.3. Eskrou hisobvarag'i bo'yicha ma'lumotlarni, jumladan hisobvarag'dan ko'chirmalarni bankdan olish.

6.4. Xaridor majburiyatlari:

6.4.1. Belgilangan muddatlarda va miqdorda pul mablag'larining tushishini ta'minlash.

6.4.2. Bank tomonidan belgilangan shaklda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik taqdim etish.

6.4.3. Eskrou hisobvarag'ini ochishda bankka taqdim etilgan hujjatlarda, pochta rekvizitlarida (shu jumladan ro'yxatdan o'tish manzili, yashash joyi), familiyasi va (yoki) ismi va (yoki) otasining ismida, telefon raqamlarida, ishonchli vakillar rekvizitlarida, shuningdek ishonchli vakillar tarkibida yuz bergan har qanday o'zgarishlar to'g'risida bankni zudlik bilan xabardor qilish.

6.4.4. Bank xizmatlari uchun bankda amalda bo'lgan tariflarga muvofiq to'lovlarni amalga oshirish.

6.4.5. Bankning talabiga binoan, zarur bo'lgan barcha hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish.

6.4.6. Eskrou hisobvarag'iga bank tomonidan xato tarzda kirim qilingan pul mablag'larini yechib olish bo'yicha talablarini (shu jumladan to'lov talablarini) qo'shimcha roziliksiz bajarishga oldindan aksept (rozilik) beradi.

6.4.7. Ofertaning 6.1.-bandida belgilangan vositachilik haqini to'lash.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Tomonlar ushbu Oferta bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

7.2. Xaridor tomonidan sotuvchining xizmat ko'rsatuvchi bank kodi, bank hisobvarag'i, bank kartasi raqami, tranzit hisobvarag'i va boshqa ko'rsatilgan ma'lumotlari uchun Xaridor javobgar hisoblanadi.

7.3. Bank Xaridor va sotuvchining majburiyatlari bo'yicha javobgar hisoblanmaydi.

7.4. Xaridor ushbu Ofertaga muvofiq belgilangan muddat va miqdorda pul mablag'larini kiritish uchun javobgar hisoblanadi.

7.5. Xaridor o'z harakatlarining noqonuniyligi yoki taqdim etilgan hujjatlarning haqiqatga to'g'ri kelmasligi natijasida Bankka va/yoki uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararni to'liq qoplash majburiyatini (solidar javobgarlik asosida) o'z zimmasiga oladi.

7.6. Xaridor ushbu Oferta shartlariga muvofiq pul mablag'larini olish uchun o'z vaqtida murojaat qilmaganligi uchun Bank javobgar emas.

7.7. Bank eskrou hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritish tartibi va grafigini belgilamaydi va nazorat qilmaydi.

7.8. Bank Oferta shartlarini nazorat funksiyasi doirasida amalga oshiradi va tomonlar o'rtasidagi asosiy majburiyatlar ijrosi uchun javobgar emas.

8. SANKSIYALAR BILAN BOG'LIQ XATARLARNI BOSHQARISH BO'YICHA SHARTLAR

8.1. Ushbu Oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlarning har biri o'z faoliyatida iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblariga amal qilishini, ularni qo'llab-quvvatlashini tan oladi xamda tasdiqlaydi.

8.2. Xaridor uchun hisobvaraqlar ochishdan oldin Bank tavakkalchilikni (shu jumladan sanksiyalar xavfi) aniqlash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni va hujjatlarni so'rashga xaqli. So'ralgan ma'lumotlar taqdim etilmagan yoki to'liq taqdim etilmagan taqdirda, bank Xaridorga hisobvaraqlar ochishda rad etishga haqli.

8.3. Xaridor yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushishi xavfi mavjud bo'lganda, Bank - operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni hamda zarur bo'lgan hujjatlarni olish (so'rash), operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash, rad etish, shuningdek mazkur Ofertani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

8.4. Bank – Xaridor va uning Kontragenti hamda u bilan tuzilgan bitim bo'yicha har qanday zarur ma'lumot yoki hujjatlarni (*kontragent to'g'risidagi ma'lumotlar, uning to'liq rekvizitlari, uning affillangan shaxslari ro'yxati, uning aksiyadorlari/muassislari tarkibi, uning ijro organi, mansabdor shaxslari, xodimlari, mahsulot to'g'risida, jo'natish hujjatlari, mahsulotning spetsifikatsiyasi, tashuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va b.*) sanksiyalar ro'yxatida mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida Xaridordan talab qilishga, Xaridor tomonidan barcha zarur hujjat/ma'lumotlar taqdim qilinmagan xollarda, Xaridorga xizmat ko'rsatishni rad etish huquqiga ega;

8.5. Bank har qanday sanksiya va embargolar bilan bog'liq xatarlar oqibatida Xaridorning topshirig'iga asosan amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha pul mablag'larining qaytarilishi, bloklanishi, muzlatilishi, yo'qolishi yoki shu kabi boshqa holatlar uchun javobgar bo'lmaydi. Shuningdek, xar har qanday sanksiyalar ta'siri sababli Xaridorga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

9. AXBOROT XAVFSIZLIGIGA OID SHARTLAR

9.1. Mijoz quyidagilarga majbur:

9.1.1. Bank tomonidan yuboriladigan xabarlar, jumladan mobil ilovadagi bildirishnomalar, SMS va PUSH-xabarlarini diqqat bilan o'rganib chiqish;

9.1.2. Bankdan firibgarlik belgilari aniqlanganligi to'g'risidagi xabarlarini olganidan keyin har qanday to'lov amaliyotlarini tasdiqlashda ehtiyotkor bo'lishi;

9.1.3. O'zining qurilmasi yo'qolganligi yoki uchinchi shaxslar tomonidan qurilmani boshqarishga nazorat o'rnatilganligini aniqlagan paytdan boshlab zudlik bilan biroq 1 (bir) kundan kechiktirmay Bankni xabardor qilish;

9.1.4. O'zining rozilgisiz amalga oshirilgan operatsiya faktini aniqlagan paytdan boshlab 1 (bir) kun ichida bu haqda Bankni xabardor qilish;

9.1.5. Bankka o'zining aloqa ma'lumotlarini taqdim etishi, ushbu ma'lumotlar Bankning foydalanuvchi bilan bog'lanishi uchun zarurligi, agar ushbu ma'lumotlar o'zgarsa, foydalanuvchi o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida bu haqda Bankka xabar berish;

9.1.6. O'zining bank ilovalariga kirish va bank kartasidan foydalanish imkonini beruvchi ma'lumotlari (jumladan, pasport ma'lumotlari, login, parol, pinkod, bank kartasi ma'lumotlari, elektron raqamli imzo, telefon qurilmasi, mahfiy so'z, qabul qilingan SMS xabarlardagi ma'lumotlar

va boshqalar)ni boshqa shaxslarga bermaslik, ularni har qanday ko‘rinishda olish imkoniyatini yaratmaslik;

9.1.7. Bankning so‘roviga ko‘ra foydalanuvchi operatsiyani o‘zi mustaqil ravishda amalga oshirganligi yoki uni foydalanuvchining topshirig‘i yoxud ixtiyoriy roziligi bilan uchinchi shaxs bajarganligi haqidagi ma’lumotlarni taqdim etishi shart. Shuningdek, foydalanuvchi firibgarlik holatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham taqdim etishi lozim.

9.2. Yuqorida belgilangan majburiyatlar bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi natijasida kelib chiqqan har qanday holatlar (jumladan, qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar natijasida **uchinchi shaxslar** tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar va boshqa harakatlar) va har qanday ko‘rinishdagi zararlar uchun Bank javobgar bo‘lmaydi.

9.3. Bank tomonidan foydalanuvchi/mijozga firibgarlik belgilari aniqlanganligi to‘g‘risida oqilona muddatda ma’lumot beriladi.

10. FORS-MAJOR

10.1. Tomonlar mazkur Oferta shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, agarda, ushbu Oferta akseptlanganidan so‘ng yengib bo‘lmas kuchlar ta’siri ostida ro‘y bergan holatlarda, favqulodda holatlar (fors-major) xarakteridagi voqealarni oldindan ko‘ra bilish yoki oqilona chora-tadbirlar orqali bartaraf etish imkoniyati yo‘qligini isbotlab bersalar, javobgarlikdan ozod etiladilar

10.2. Mazkur Oferta maqsadlarida Tomonlarning bevosita o‘zlari nazorat qila olmaydigan, jumladan, davlat organlari sa’y harakatlari orqali konfliktni oldini olish va bartaraf etish holatlaridan tashqari vaziyatlar, ushbu Oferta shartlarini bajarishga to‘sqinlik qilsa va yong‘in, tabiiy ofatlar, qamal, zilzila, urush, tartibsizliklar, fuqarolar qo‘zg‘oloni kabi voqealarni o‘z ichiga olsa fors-major holatlari deb hisoblanadi. Ofertaning amal qilish muddati favqulodda hodisalar va ularning asoratlari amal qilib turgan muddatga mos ravishda suriladi.

10.3. Tomonlarning bila turib qasddan yoki extiyotsizligi oqibatida sodir bo‘lgan hodisalar fors-major holatlari deb hisoblanmaydi. Ofertada ko‘zda tutilgan to‘lovlarni amalga oshirish uchun yetarli pul mablag‘lari mavjud emasligi yoki to‘lovlarni amalga oshirmaslik ham fors-major holatiga kirmaydi.

10.4. Fors-major holatlari yuz berishi natijasida mazkur Ofertada ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarish imkoni bo‘lmagan Tomon ikkinchi Tomonni fors-major holati yuzaga kelganligi to‘g‘risida zudlik bilan xabardor qilishi shart.

10.5. Davlat axborot tizimlaridagi (“Notarius” AAT) texnik nosozliklar tufayli majburiyatlar kechikkani uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

11. NIZOLARNI HAL ETISH

11.1. Ushbu Oferta bo‘yicha yuzaga kelgan kelishmovchilik va nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Muzokaralar yo‘li bilan hal etilmagan kelishmovchiliklar va nizolar amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

13. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Mazkur Oferta akseptlanganidan va pul mablag‘lari eskrou hisobvarag‘iga kirim qilingan vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

12.2. Eskrou hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari sotuvchi(lar)ga o‘tkazib berilgandan yoki Xaridorga to‘liq qaytarib berilganidan so‘ng o‘z kuchini yo‘qotgan hisoblanadi.

12.3. Mazkur Ofertada ko‘zda tutilmagan holatlar vujudga kelsa, Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan ish yuritadi.

12.4. “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, o‘zining shaxsga doir ma’lumotlari Bank tomonidan ishlov berilishiga va uchinchi shaxslarga taqdim qilinishiga shartlarsiz va muddatsiz o‘z roziligini beradi. (Ofertaning ushbu sharti u bekor bo‘lgandan so‘ng ham o‘z kuchini saqlaydi).

OFERTA BERUVCHINING YURIDIK MANZILI:
“O‘zsanoatqurilishbank” ATB

Manzil: Toshkent sh., Yunusobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 3 uy.
MFO: 00440; STIR: 200 833 707 Telefon: (99871) 200-43-43, 1180
Veb sahifa: www.sqb.uz